TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BAHRAMOVA MOHINUR BAHRAMOVNA

XALQARO ARBITRAJ FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH VA HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK: 341.6(043.5)(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BAHRAMOVA MOHINUR BAHRAMOVNA

XALQARO ARBITRAJ FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH VA HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Yu199 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Rustambekov Islambek Rustambekovich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Samet Tatar** yuridik fanlar doktori, professor
	Ahmedov Azizxon Dilshodovich yuridik fanlar doktori
	Yakubov Axtam Nusratilloevich yuridik fanlar doktori
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 13-iyul soat 10:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1151-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 27-iyunda tarqatildi.

(2023-yil 27-iyundagi 29-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.K.Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y.Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar nomzodi, professor

S.S.Gulyamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda xalqaro savdo aloqalari va investitsiya faoliyati jadal sur’atda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, ular bilan bog‘liq ko‘plab nizolar ham kelib chiqmoqda. Xalqaro savdo aloqalari va investitsiya borasidagi nizolarni muqobil hal etish shiddat bilan kechayotgan bugungi zamonda dunyo hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Binobarin, nizolarni hal etishning bir necha turi takomillashib bormoqda. COVID-19 pandemiyasidan so‘ng nizolarni hal etishning eng talabgor usuli sifatida raqamli muhitda onlayn tartibda nizolarni hal etish eng qulay tizim sifatida baholandi. Statistika va nizolarni onlayn hal qilishga ixtisoslashgan markazlarning 2021-yil yakuni bo‘yicha hisobotlariga ko‘ra, nizolarni onlayn hal qilish bo‘yicha ko‘rib chiqilgan ishlarning 46,72% (78440 ta) transchegaraviy nizolar va 53,28% (89446 ta) milliy miqyosdagi nizolar toifasiga kiritilgan[1]. Yangi nizolarni hal qilishga qaratilgan raqamli platformalar (raqamli arabitrajlar) 200 dan oshgan va 1000 dan ortiq nizolarni ko‘rib chiqqan[2]. Ushbu ko‘rsatkichlar nizolarni raqamlashtirilgan muhitda samarali tartibga solish muhimligiga yaqqol misoldir.

Jahonda nizolarni raqamlashtirilgan muhitda hal qilish uchun ishlab chiqilgan dastur faqat onlayn rejimda ishlaydi. Diskret vazifalar, ya’ni hujjatlarni onlayn to‘ldirish, onlayn eshituvlarni amalga oshirish uchun onlayn interfeysni taqdim etadigan boshqa sud dasturlaridan farqli o‘laroq, nizolarni muqobil hal etish (ADR) foydalanuvchilari an’anaviy so‘rovlar bo‘yicha sudga murojaat qilishmaydi. Dastur sud qarorlarini qabul qilish uchun mo‘ljallangan texnologik platforma emas, balki murojaatchilarning nizolarini yoki ishini hal qilishda sudga yordam beruvchi vositadir. Nizolarni raqamlashtirilgan muhitda hal qilish tomonlarga nizoni maxfiylik, tezkorlik, o‘z ixtiyorlariga ko‘ra hamda xolislik mezonlari asosida hal etish va chiqarilgan qarorning butun dunyoda ijrosini ta’minlash imkoniyatini beradi. Shu munosabat bilan ushbu sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda. Shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish asoslari va tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilash zarur. Ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda nizoni ko‘rish, hal etish huquqi va vakolatlarini belgilash, nizo onlayn platformada ko‘rilishini bekor qilish yoki uning qarori ijrosini tan olish hamda ijro etish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo‘nalishi sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda qonun ustuvorligini ta’minlash, sud tizimi va nizolarni hal qilishning muqobil mexanizmlari hamda investitsiya muhitini yaxshilash, biznesni jadal rivojlantirish yo‘nalishida tashqi savdo faoliyatini samarali tartibga solish va subyektlar huquqlarini kafolatlash sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. “Investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish”[3] iqtisodiy-ijtimoiy sohani

[1] https://ec.europa.eu/consumers/odr/main/?event=main.statistics.show
[2] https://odr.info/provider-list/. http://www.odreurope.com/odr-services/odr-platforms-apps
[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida baholangan. Bu yo‘nalishda huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi Fuqarolik kodeksi[1], 2018-yil 24-yanvardagi Iqtisodiy protsessual kodeksi[2], 2003-yil 11-dekabrdagi O‘RQ–560-II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, 2006-yil 16-oktabrdagi O‘RQ–64-son “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi, 2015-yil 22-maydagi O‘RQ–385-son “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, 2019-yil 25-dekabrdagi O‘RQ–598-son “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-fevraldagi O‘RQ–674-son “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-iyundagi PF–5087-son “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 5-noyabrdagi PQ–4001-son “O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi huzurida Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC)ni tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-apreldagi PQ–4300-son “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 17-iyundagi PQ–4754-son “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi 2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining II, ya’ni “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.[3] Xalqaro arbitraj faoliyatini raqamlashtirish va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari oid ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, shu jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlari: Stenford universiteti, Yale universiteti, Harvard universiteti, Kolumbiya universiteti, New York

[1] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami 05.10.2020 y., 03/20/640/1348-son.

[2] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 13.01.2021-y., 03/21/663/0013-son.

[3] Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: https://siepr.stanford.edu/publications/tipping-scales-balancing-consumer-arbitration-cases, https://library.law.yale.edu/news/yale-law-school-consumer-arbitration-data-archive, https://guides.library.harvard.edu/law/international-arbitration, https://cicia.law.columbia.edu/content/about, https://law.nus.edu.sg/nuslawacademy/certificate-programmes/graduate-certificates/gcia/#overview, https://www.law.ox.ac.uk/content/international-commercial-arbitration, https://www.lcil.cam.ac.uk/cuarblcil-lecture-series,https://www.reading.ac.uk/ready-to-study/study/2023/law-pg/llm-international-commercial-law, https://arbitration.qmul.ac.uk, https://www.city.ac.uk/prospective-students/courses/postgraduate/international-litigation-and-dispute-resolution,https://www.universiteitleiden.nl/en/law/research,https://llm.law.hku.hk/arbdr/,https://www.rewi.hu-berlin.de/en/sp/angebote/master/idr, https://cil.nus.edu.sg/research/international-disputeresolution/singapore-international-arbitration academy/, https://www.siarb.org.sg/,https://ud.ac.ae/ud_programs/llm-arbitration-and-dispute-resolution/,https://www.diac.com/en/home/, https://www.hkiac.org, https://www.newcastle.edu.au, https://www.uzh, https://www.uni-frankfurt.de,https://www.msu.ru/, https://msal.ru/, http://igpran.ru/, https://www.tsu.ru/, https://gubkin.ru/;https://www.rea.ru/ru/abiturientu/Pages/abiturientu.aspx,https://sgmu.ru.

universiteti; Buyuk Britaniya: Oksford universiteti, Kembrij universiteti, Reading universiteti, Queen Mary universiteti, City universiteti; Yevropa Ittifoqi: Leiden universiteti, Humboldt-Universität; Singapur xalqaro arbitraj akademiyasi, Singapur Milliy universiteti; O‘rta Sharq mamlakatlari: Dubai universiteti, Dubai xalqaro arbitraj markazi; Hong Kong xalqaro arbitraj markazi; Avstraliyaning Newcastle universiteti; Rossiya Federatsiyasi: Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti, Tomsk davlat universtiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va oliy ta’lim hamda boshqa ilmiy tadqiqot muassasalarida olib borilmoqda.

Jahonda xalqaro arbitraj faoliyatini raqamlashtirish va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalariga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan: raqamli arbitraj tushunchasiga nisbatan evristik va kognitiv yondashuvlar asoslantirilgan. Raqamli arbitraj huquqiy asoslari yanada takomillashtirilgan (Stenford universiteti, Yale universiteti, Harvard universiteti, Kolumbiya universiteti, New York universiteti). Xalqaro investorlar huquqlarini ta’minlash maqsadida, raqamli arbitraj qo‘llanishi sohalarini yanada kengaytirish, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarning moliyaviy resurslari hisobiga raqamli arbitraj ilmiy sohasiga grantlarni jalb etishning konseptual asoslari taklif etilgan (Oksford universiteti, Kembrij universiteti, Reading universiteti, Queen Mary universiteti, City universiteti). Xalqaro arbitraj faoliyatini raqamlashtirish va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari ilmiy va nazariy asoslari, fundamental doktrina nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan (Leiden universiteti, Humboldt-Universität). Raqamli arbitraj rivojlanishi evolyutsiyasini zamonaviy bibliometrik analizlar orqali aniqlash va bugungi kunda raqamli arbitraj qo‘llanishi holati, arbitraj jarayonida raqamlashtirilgan tizimlardan foydalanishni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or tijorat kompaniyalari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishi taklif etilgan (Singapur xalqaro arbitraj akademiyasi, Singapur Milliy universiteti). Raqamli arbitraj samarali tizimlarini tashkil etishda, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi hisoblanmish xalqaro arbitraj faoliyatini raqamlashtirish masalalari zaif va kuchli texnologiyalar negizida joriy qilish taklif etilgan (Hong Kong xalqaro arbitraj markazi, Avstraliyaning Newcastle universiteti). Investorlar murojaatini ko‘rib chiqish yengillashtirishda texnologik mexanizmlarini davlat xizmati tizimiga joriy etish asoslari ishlab chiqilgan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti, Tomsk davlat universtiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi).

Dunyoda raqamli arbitraj huquqiy muammolari va ularning yechimini topishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, raqamlashtirilgan tzimlar asosida xalqaro markazlar tashkil etish orqali raqamli arbitraj tizimini qulaylashtirish, ko‘p darajali raqamli arbitraj tizimlarini joriy etish, investorlarning iqtisodiy himoyasini kuchaytirishda raqamli arbitraj axborot bazalaridan foydalanish, raqamli arbitraj qo‘llanishi qonuniy asoslarini takomillashtirish, turli sohalarda raqamli arbitraj qo‘llanishi huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, xalqaro raqamli arbitraj standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqaro va mahalliy nizolarni raqamli arbitraj faoliyati doirasida hal etish hamda uning vakolatlarini aniqlashtirish, shuningdek, belgilashning huquqiy tahlili, mazkur munosabatlarga qo'llaniladigan huquq va yurisdiksiyani belgilash, bu boradagi xalqaro tajriba hamda xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyoti mamlakatimizda mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Nizolarni muqobil hal etishning ayrim masalalari xususiy huquq doirasida mamlakatimiz olimlaridan — H.Rahmonqulov, S.Gulyamov, I.Rustambekov, B.Samarxodjayev, O.Oqyulov, F.Otaxonov, Sh.Masadikov, D.Habibullayev, A.Suleymenova, Sh.Joldasova va boshqalarning[1] ilmiy ishlarida muayyan darajada ko'rib chiqilgan.

Xorijiy mamlakatlarda xalqaro arbitraj faoliyatini huquqiy tartibga solish, uning yurisdiksiyasini belgilash, vakolatlarini aniqlashtirish hamda yangi yo'nalishlarini rivojlantirishni so'nggi yillarda tadqiq qilgan olimlar sifatida G.Born, E.Alpaydin, P.Cortes, A.Lodder, A.Schmitz, A.Agrawal, A.Mills, A.Halevy, A.Musella, A.Berg, S.Brams, I.Banttekas, C.Hodges, C.Liyanage, R.Catherine, D.Neuberger, D.Zielinski, E.Johnson, E.Katsh, F.Sander, F.Steffek, E.Gaillard, J.Goldsmith, J.Thornton, S.Shackelford, B.Barton, J.Betancourt, J.Clanchy, J.Hope, J.Paulsson, J.Karton va boshqalarni[2] ko'rsatish mumkin.

MDH davlatlarida tadqiq qilinayotgan mavzu yo'nalishida so'nggi yillarda tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar sifatida M.Fedotov, E.Leanovich, M.Yegorova, M.Boguslavskiy, L.Anufriyeva va boshqalarni[3] ko'rsatish mumkin.

Biroq mamlakatimiz olimlarining ishlari hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajning umumiy jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, nizolarni onlayn tartibda hal etish, raqamli arbitraj va uning yurisdiksiyasiga doir muammolar va sun'iy intellektga asoslangan huquqiy tartibga solish mexanizmlari kompleks tadqiq qilinmagan. Shu sababli ushbu masalani kompleks tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va tavakkalchilik xavf-xatarini kamaytirishning huquqiy mexanizmini yaratishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalqaro raqamli arbitraj yurisdiksiyasi nuqtai nazaridan, ular faoliyatini tartibga solishni yanada takomillashtirish va ushbu sohadagi qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli muhitda nizolarni hal etishning huquqiy tushunchasi va mohiyatini aniqlash;

[1] Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.
[2] Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yhati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida ko'rsatilgan.
[3] Mazkur olimlar ishlarining to'liq ro'yhati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida ko'rsatilgan.

arbitrajni raqamlashtirish va nizolarni sun'iy intellekt tomonidan hal etilishi masalalarini o'rganish;

raqamli muhitda nizolarni hal etish yurisdiksiyaning nazariy tushunchasini ochib berish;

raqamli arbitraj yurisdiksiyaning asosiy tamoyillarini yoritish;

raqamli arbitraj sudi va arbitrlarning vakolatlarini tasniflash;

raqamli arbitraj faoliyatini huquqiy tartibga solish va uning qarorlarini tan olish va ijro etish masalalarini tahlil qilish;

milliy sudlar va xalqaro raqamli arbitraj o'rtasidagi munosabatlarni tavsiflash;

O'zbekiston qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash;

qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti xalqaro onlayn savdo-iqtisodiy faoliyat doirasidagi nizolarni xalqaro raqamli arbitrajlarda hal etishning milliy va xalqaro-huquqiy tartibga solinishi bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti xalqaro raqamli arbitrajlar faoliyatini huquqiy tartibga solish, nizolarni sun'iy intellekt vositasida hal etishning onlayn mexanizmlari doirasini belgilashdagi ilmiy-amaliy muammolar, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro-huquqiy hujjatlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, umumlashtirish, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlarning tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arbitrni tayinlash, rad etish, vakolatlarining amal qilishini tugatish, arbitraj sudining yurisdiksiyasi masalasi yuzasidan qarorlar qabul qilish, dalillarni olishga ko'maklashish, shuningdek arbitrajning hal qiluv qarorini bekor qilish masalalari arbitraj joylashgan joy qonuni asosida va joylashgan joydagi davlat vakolatli sudi tomonidan amalga oshirilishi hamda uning vakolatlari doirasida ta'minlash choralarini tan olish va ijroga qaratish asoslarini belgilash zarurati asoslantirilgan;

arbitrlar, arbitraj tomonidan tayinlangan ekspertlar, arbitraj muassasasining xodimlari — arbitraj yoki hakamlik muhokamasi davomida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan holatlar yuzasidan guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emasligi asoslab berilgan;

arbitraj sudida ko'rilayotgan da'voni ta'minlash choralari arbitraj muhokamasi tarafining arizasiga ko'ra iqtisodiy sud tomonidan ko'rilishi mumkinligi, shuningdek, da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish haqidagi arbitrajning hal qiluv qarori ta'minlash choralarini iqtisodiy sud tomonidan bekor qilish uchun asos bo'lishi asoslangan;

ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlik sudiga yoki arbitrajga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishuvi mavjud bo'lib, hakamlik sudiga yoki arbitrajga murojaat qilish imkoniyati boy berilmagan bo'lsa va, agar ishning iqtisodiy sudda ko'rilishiga qarshi bo'lgan javobgar o'zining nizoning

mazmuni bo‘yicha birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlik sudining yoki arbitrajning hal qiluviga o‘tkazish to‘g‘risida iltimosnoma bersa sud da’vo arizasini ko‘rmasdan qoldirishi asoslab berilgan;

birjada tuziladigan shartnomalar yuzasidan vujudga keladigan nizolarni hal etishda Arbitraj komissiyasi o‘rni, ahamiyati va ishni hal etish mexanizmi sifatidagi konseptual huquqiy maqomi asoslab berilgan;

iqtisodiyot sohasida yuzaga keladigan nizolar hamda boshqa ishlar bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish masalalari, agar arbitraj joyi O‘zbekiston Respublikasida joylashgan bo‘lsa, qarorni tan olish va ijro qilish O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida nazarda tutilgan o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olingan holda hal etilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xalqaro amaliyotda yangi huquqiy amaliyot sifatida “Raqamli muhitda nizolarni onlayn hal etish” shakllanganligi va onlayn tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi xalqaro markazlar tomonidan nizolarni belgilangan reglament asosida ko‘rib, hal etish konseptual jihatdan asoslab berildi;

“Raqamli makonda nizolarni hal qilish”, “Raqamli arbitraj”, “Sun’iy intellekt”, “Nizolarni onlayn hal qilish (ODR)”, “Onlayn arbitraj yurisdiksiyasi”, “Elektron tijorat platformasi”, “Elektron onlayn-auksion”, “Elektron logistika savdo portali” kabi tushunchalarga mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi;

xalqaro raqamli arbitraj yurisdiksiyasi faoliyatiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar aniqlandi;

onlayn arbitraj taraflar o‘rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan shartlarga muvofiq amalga oshirilishi, taraflarga jarayonni amalga oshirish usulini tanlash erkinligini berishi, nizolarni hal qilish uchun eng maqbul shartlar va protsessual bosqichlarni tanlashga imkon yaratishi isbotlab berildi;

nizolarni onlayn hal etish, xususan, raqamli arbitraj yurisdiksiya qoidalari majburiy va shartli arbitraj yurisdiksiyasining turli jihatlarini qo‘llagan holda o‘ziga xos va cheklangan bo‘lishi asoslab berildi;

o‘zaro bog‘liq dalillarning dolzarbligi aniqlandi va yurisdiksiya da’volarini ko‘rib chiqishning onlayn prosessual mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar asoslab berildi;

xalqaro arbitraj sohasida nizolarni onlayn hal qilish va elektron arbitraj platformalarini joriy etish orqali transchegaraviy nizolarni hal qilishning raqamlashtirilgan mexanizmi hamda uning yurisdiksiyasini belgilash zarurligi, bunda server joylashgan joy qonuni yangi kollizion norma sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning yakuni yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va

tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, nizolarni muqobil hal qilish mexanizmlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish faoliyati yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishda, shuningdek, “Xalqaro xususiy huquq“, “Xalqaro elektron tijorat arbitraji”, “Nizolarni muqobil usulda hal etish”, “Intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal etish” kabi huquqiy fanlarini o‘qitish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, oliy yuridik ta’lim muassasalarida xususiy va xalqaro huquq fanlarini o‘qitishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

arbitrni tayinlash, arbitrni rad etishni qanoatlantirish, arbitr vakolatlarining amal qilishini tugatish xususida qaror qabul qilish, arbitraj sudining yurisdiksiyasi masalasi yuzasidan qarorlar qabul qilish, dalillarni olishga ko‘maklashish, shuningdek arbitrajning hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ariza arbitraj joylashgan yerdagi iqtisodiy sudga berilishi, ta’minlash choralarini tan olish va ijroga qaratish, arbitraj sudida ko‘rilayotgan da’voni ta’minlash choralarini ko‘rish to‘g‘risidagi ariza arbitraj joylashgan yerdagi yoki qarzdor davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi yoxud, agar qarzdor davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy noma’lum bo‘lsa, uning mol-mulki turgan joydagi iqtisodiy sudga berilishi asoslarini belgilash yuzasidan takliflari O‘zbekiston Respublikasi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 2022-yil 16-maydagi O‘RQ–769-sonli Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunning 37-moddasi beshinchi qismida o‘z aksini topdi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 15-iyuldagi 06-13/35-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar arbitraj sudining yurisdiksiyasi masalasi yuzasidan qarorlar qabul qilish, ta’minlash choralarini tan olish va ijroga qaratish, ta’minlash choralarini ko‘rish, dalillarni olishga ko‘maklashish to‘g‘risidagi arizalari iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqilayotganda qo‘llanilishi to‘g‘risida qaror qabul qilishga doir vakolatlarini belgilashga xizmat qilgan;

arbitrlar, arbitraj tarkibi tomonidan tayinlangan ekspertlar, arbitraj muassasasining xodimlari, hakamlik sudyalari — arbitraj yoki hakamlik muhokamasi davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan holatlar yuzasidan guvoh sifatida chaqirilishi va so‘roq qilinishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi takliflari O‘zbekiston Respublikasi “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 2022-yil 16-maydagi O‘RQ–769-sonli Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunning 53-modda ikkinchi qismida o‘z aksini topdi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 8-iyuldagi 04/2-09/3348-sonli dalolatnomasi).Ushbu taklifning amalga oshirilishi arbitraj muhokamasida ishtirok etgan shaxslarning

jarayon konfedensial tashkil etilganligi munosabati bilan ma'lumot bermaslik majburiyati huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi;

arbitraj sudida ko'rilayotgan da'voni ta'minlash choralari arbitraj muhokamasi tarafining arizasiga ko'ra iqtisodiy sud tomonidan ko'rilishi mumkinligi, shuningdek, da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish haqidagi arbitrajning hal qiluv qarori ta'minlash choralarini iqtisodiy sud tomonidan bekor qilish uchun asos bo'lishi yuzasidan berilgan taklif O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 16-maydagi O'RQ–769-sonli Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunning 93-moddasi oltinchi qismi, 99-moddasi sakkizinchi qismida o'z aksini topdi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 15-iyuldagi 06-13/35-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar arbitraj sudining da'voni ta'minlash choralarini manfaatdor tomon arizasiga binoan iqtisodiy sudda ko'rilishi, da'voni ta'minlash choralarini ko'rish to'g'risidagi arizalari iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqilayotganda qo'llanilishi to'g'risida qaror qabul qilishga doir vakolatlarini belgilashga xizmat qilgan;

ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nizoni hakamlik sudiga yoki arbitrajga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishuvi mavjud bo'lib, hakamlik sudiga yoki arbitrajga murojaat qilish imkoniyati boy berilmagan bo'lsa va, agar ishning iqtisodiy sudda ko'rilishiga qarshi bo'lgan javobgar o'zining nizoning mazmuni bo'yicha birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlik sudining yoki arbitrajning hal qiluviga o'tkazishi to'g'risida iltimosnoma bersa sud da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirishi lozimligi to'g'risidagi takliflari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 107-moddasining 2-bandi O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 16-maydagi O'RQ–769-sonli Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunning 1-moddasining, 9-bandida o'z aksini topdi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 8-iyuldagi 04/2-09/3348-sonli dalolatnomasi).Ushbu taklifning amalga oshirilishi javobgar o'zining nizoning mazmuni bo'yicha birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni hakamlik sudining yoki arbitrajning hal qiluviga o'tkazishi to'g'risida iltimosnoma berishi huquqini takomillashtirishga xizmat qilgan;

fyuchers shartnomalarini tuzish va bajarish bilan bog'liq nizolar birjaning Arbitraj komissiyasi tomonidan hal etilishi to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tovar-xom ashyo birjalarida fyuchers savdolarini joriy qilish hamda mahsulotlarni avtotransportda tashish xizmatlarining elektron logistika savdo portalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topdi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 14-oktabrdagi 811-5/6628-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif tuzilgan fyuchers shartnomalari yuzasidan nizolarning arbitraj komissiyasi tomonidan ko'rib hal etilishiga xizmat qilgan;

arbitrajning hal qiluv qarorini tan olish va ijroga qaratish masalalari, agar arbitraj joyi O'zbekiston Respublikasida joylashgan bo'lsa, "Xalqaro tijorat

arbitraji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda hal etilishi yuzasidan berilgan taklif O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi 2022-yil 16-maydagi O'RQ–769-sonli Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunning 13-bandiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 248-moddasi beshinchi qismida o'z aksini topdi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 8-iyuldagi 04/2-09/3348-sonli dalolatnomasi).Ushbu taklifning amalga oshirilishi chet davlatlar sudlarining va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratishning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunga muvofiq amalga oshirilishi lozimligi tartibini belgilab berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 8 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 53 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 9 ta monografiya va 43 ta ilmiy maqola (24 ta xalqaro nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 215 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **„Onlayn nizolarni hal etishning raqamlashtirilgan tizimlari va ularning huquqiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning keyingi boblarida muhokama qilingan muammolarni ishlab chiqish uchun nazariy asosning tahlili yoritilgan. Ushbu bobda raqamli makonda onlayn nizolar tushunchasi va ularning huquqiy maqomi, onlayn nizolarni hal etishning raqamlashtirilgan tizimlarining huquqiy asoslari, shuningdek onlayn nizolarni xalqaro, mintaqaviy va ikki tomonlama hal etishning huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

Dissertant xalqaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, xalqaro raqamli arbitrajning dolzarb ahamiyatini aniqlashtirgan. Bunda onlayn nizolarni raqamlashtirilgan arbitrajda hal etish – to‘liq sun’iy intellektga asoslangan texnologik jihatdan mumkin bo‘lgan, inson arbitrlar bilan bir xil vazifalarni funksional ravishda bajarishi va qonun tomonidan ruxsat etilgan tizim asosida amalga oshirilishi to‘g‘risidagi yondashuvga asoslangan. Jarayonning yana bir muhim elementi — bu sud muhokamasi bo‘lib, unda tomonlar o‘z ishini taqdim etish imkoniyatiga ega. Agar sun’iy intellektga asoslangan tizim tinglovda tomonlarning tinglanishini (va ko‘rishini) texnologik jihatdan ta’minlay olsa, jarayonning bu qismini “eshitish” sifatida tavsiflashga qarshi konseptual e’tiroz yo‘q. Bu sun’iy intellektga asoslangan tizim tomonidan o‘tkaziladigan tinglov inson arbitrlari tomonidan boshqariladigan an’anaviy tinglovga taqlid qiladi degani emas. Aksincha, sun’iy intellektga asoslangan tinglov uchun muhim bo‘lgan narsani, ya’ni tomonlarni tinglash va o‘z ishini taqdim etish uchun forumni ta’minlaydi. To‘liq sun’iy intellektga asoslangan arbitraj tizimlari kelajakda texnik jihatdan ishlashi mumkin. Agar bunday tizimlar inson arbitrlari bilan bir xil funksiyalarni nafaqat bir xil darajada, balki samaraliroq va sifatli bajarishga qodir bo‘lsa, amaldagi qonunchilik bazasi bilan bog‘liq savollar muqarrar ravishda paydo bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, an’anaviy arbitrajning huquqiy asoslari onlayn versiya uchun qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ba’zi jihatlar va masalalar mavjudki, ularda bunday qoidalar barcha yurisdiksiyalarda onlayn arbitraj qarori haqiqiy deb qabul qilinishiga imkon beradigan tarzda talqin qilinishi ehtimoli mavjud.

Maxsus qoidalar yoki tushuntirishlarni talab qilishi mumkin bo‘lgan ba’zi masalalar quyidagilardir:

I) barcha yurisdiksiyalar elektron hujjatlar va imzolarning haqiqiyligini tan olmaydi, bu esa elektron arbitraj kelishuvining haqiqiyligiga va elektron hujjat ko‘rinishida chiqarilgan qarorni ijro etish imkoniyatiga shubha tug‘diradi;

II) elektron usullar orqali amalga oshiriladigan xizmat va bildirishnomalar jarayonlari tartibga solinishi kerak;

III) amaldagi qonunchilik tomonlardan arbitraj joyini tanlashni talab qiladi, bu shart onlayn jarayon uchun imkonsiz bo‘lishi mumkin;

IV) elektron aloqalarning tez sur’atlarini hisobga olgan holda qonunning tegishli jarayoniga rioya qilinishini ta’minlash uchun maxsus qoidalar talab qilinadi;

V) onlayn arbitrajda foydalanish mumkin bo‘lgan aloqa vositalarining xususiyatlarini tartibga solish kerak;

VI) jarayonning maxfiyligi va yaxlitligini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan xavfsizlik vositalarini ishlab chiqish zarur;

VII) qarorni qo‘llash mexanizmlari juda qiyin bo‘lishi ehtimoli mavjud, ayniqsa, ushbu tartib-qoidalar uchun sud aralashuvini talab qilmaydigan majburlash mexanizmlaridan foydalanish qulay bo‘lishi mumkin.

Dissertant, onlayn arbitraj uchun namunaviy qonunga ega bo‘lish ko‘plab afzalliklarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. *Birinchidan,* bu onlayn

arbitrajni tartibga solish yo‘lidagi qadam bo‘lib, u uchun zarur bo‘lgan qoidalar haqida birinchi g‘oyalarni taqdim etadi. *Ikkinchidan,* bu ma’lum darajada butun dunyo bo‘ylab uyg‘unlashuvga imkon beradi. *Va nihoyat,* bu elektron aloqadagi yangi texnologik yutuqlar amaldagi qonunchilik eskirgan yoki to‘liq bo‘lmagan hollarda osongina o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan moslashuvchan vositadir.

Tadqiqotchi xalqaro raqamli arbitrajning maxsus huquqiy maqomini tahlil qilib, uni turli davlatlardagi kompaniyalar yoki shaxslar o‘rtasidagi nizolarni, odatda, sudga murojaat qilmasdan shartnomaga muvofiq vujudga kelishi mumkin bo‘lgan onlayn nizolar to‘g‘risidagi qoidalarni kiritish orqali hal etishga qaratilgan huquqiy jarayon sifatida baho beradi. Bir qator olimlarning yondashuvlarini tahlil etgan holda (H.Rahmonqulov, S.Gulyamov, I.Rustambekov, B.Samarxodjayev, O.Oqyulov, F.Otaxonov, Sh.Masadikov, D.Habibullayev, A.Suleymenova, Sh.Joldasova) xalqaro raqamli arbitraj sudlari davlat sudlariga nisbatan qator afzalliklarga egaligi asoslangan. Bunda xalqaro raqamli arbitraj tezkor va sifatli natijaga erishishning munosib usuli ekanligi, instansiyalarning mavjud emasligi va bir bosqichda nizo hal etilishi, taraflar mustaqil ravishda arbitrlarni tanlashi va arbitraj jarayoni qoidalariga kelishgan holda o‘zgartirish kirita olishi, qarori ijro etilishi majburiyligi va dunyo bo‘ylab uning ijrosini ta’minlash mumkinligi asosiy jihatlar ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Dissertant xalqaro arbitrajning ta’riflari va ushbu masala bo‘yicha xorijiy olimlar (G.Born, E.Alpaydin, P.Cortes, A.Lodder, A.Schmitz, A.Agrawal, A.Mills, A.Halevy, A.Musella, A.Berg, S.Brams, I.Banttekas, C.Hodges, C.Liyanage, R.Catherine, D.Neuberger, D.Zielinski, E.Johnson, E.Katsh, F.Sander, F.Steffek, E.Gaillard, J.Goldsmith, J.Thornton, S.Shackelford, B.Barton, J.Betancourt, J.Clanchy, J.Hope, J.Paulsson, J.Karton)ning fikrlarini tahlil etib, xalqaro raqamli arbitraj turli mamlakatlardagi tadbirkorlik subyektlari yoki shaxslar o‘rtasidagi onlayn nizolarni hal qilishga qaratilgan huquqiy jarayon sifatida, odatda, kelgusidagi nizolarni xalqaro raqamli arbitrajga yuborish to‘g‘risidagi bitimni qo‘shish orqali aniqlanadi, - degan xulosaga kelgan.

AQShda iste’molchi arbitrajining nizodan oldingi bandidan kelib chiqadigan onlayn arbitraj qarorining ijro etilishi Nyu-York Konvensiyasining V(2) moddasidagi davlat siyosatiga oid istisnolarga zid kelmaydi[1]. Yevropa Ittifoqi Adliya Sudidan keskin farqli o‘laroq, AQSH Oliy sudi Federal arbitraj qonuni (FAA)ga ko‘ra, iste’molchilarga nizolar bo‘yicha arbitraj qoidalarini qat’iy qo‘llaydi. FAA (Federal arbitraj qonuni) 1925-yilda arbitraj kelishuvlariga nisbatan keng tarqalgan sud dushmanligiga javoban qabul qilingan. Qonunning asosiy mazmuniy qoidasi 2-bo‘limda keltirib o‘tilgan. Ya’ni: “Tijorat shartnomalaridagi arbitraj qoidalari qonunda yoki har qanday shartnomalarni bekor qilish uchun qonunchilikda mavjud bo‘lgan asoslar bundan mustasno bo‘lgan holda haqiqiy, qaytarib bo‘lmaydigan va ijro etilishi mumkin” – deb ta’kidlangan. AQSH Oliy sudi ushbu bandni shunday izohladiki, arbitraj kelishuvlari faqat “firibgarlik, majburlash yoki vijdonsizlik kabi umumiy qo‘llaniladigan shartnoma

[1] A. Schmitz “Drive-Thru Arbitration in the Digital Age: Empowering Consumers through Regulated ODR”, Baylor L. Rev. 2010, afl. 62, 208 (“OArb that ends with a final award is arbitration subject to the FAA and its strict enforcement”).

himoyasi" asosida haqiqiy emas deb topilishi mumkin, lekin arbitrajga maxsus taalluqli bo'lgan yoki o'z ma'nosi jihatidan arbitraj kelishuvi muhokama qilinayotganligidan kelib chiqadigan vajlar tufayli bekor qilinishi mumkin emas[1].

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va doktrinasini o'rganish asosida „raqamli makonda nizolarni hal qilish", „sun'iy intellekt", „nizolarni onlayn hal qilish (ODR)", „onlayn arbitraj yurisdiksiyasi", „onlayn arbitraj shartnomasi", „onlayn arbitraj hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish", „elektron tijorat platformasi", „E-auksion elektron savdo platformasi" kabi atamalarga mualliflik ta'rifi shakllantirildi va xalqaro raqamli arbitrajning jozibadorligini ta'minlovchi xususiyatlar ko'rsatib berildi.

Xususan, Onlayn sud kamida quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. *Birinchidan,* sudlanuvchilarga o'z da'volarini bayon qilish va dalillarni interaktiv veb saytga yuklashda yuridik vakilliksiz yordam berish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan onlayn sud bosqichi. *Ikkinchidan,* sudyalar tomonidan o'qitilgan va ularga hisob beruvchi yuridik malaka va tajribaga ega bo'lgan kotiblar bo'lgan yangi tashkil etilgan "Ish boshqaruvchilari" tomonidan yarashtirish bosqichi. *Nihoyat,* hal qilinmagan ishlar haqiqiy sudya tomonidan, yuzma-yuz sud muhokamasi, video yoki telefon orqali ko'rib chiqish yoki faqat yozma arizaga asoslangan qarorning qaysi biri eng maqbul bo'lganiga qarab hal qiluvchi bosqich. Aniqlash tartibi to'g'risidagi qaror ish rahbarining protsessual buyrug'ining obyekti bo'ladi, lekin tomonlarning qarori sudya tomonidan qayta ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan holda amalga oshiriladi.

Muhimi, aniqlash bosqichidan kelib chiqadigan qaror okrug sudida ijro etilishi mumkin, buning uchun u okrug sudi qarori bilan bir xil huquqiy maqomga ega bo'ladi. Biroq, Onlayn arbitraj qaroridan farqli o'laroq, Onlayn sud qarori mohiyati bo'yicha to'liq ko'rib chiqilishi kerak. Haqiqatan ham, onlayn sud qarori okrug sudida oddiy apellatsiya tartibida ko'rib chiqilishi mumkin. Onlayn suddan shikoyat qilish uchun ruxsat talab qilinsa-da, yutqazgan tomon ham fakt, ham huquq masalalari bo'yicha apellatsiya berish huquqiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, tuman sudining ruxsati bilan yutqazgan tomon ikkinchi marta Apellyatsiya sudiga shikoyat qilish huquqiga ega bo'ladi.

„Onlayn arbitraj va uning huquqiy tartibga solinishi" deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida onlayn arbitraj, uning huquqiy tushunchasi va mohiyati, onlayn arbitrajda nizolarni hal etish tartibi, onlayn arbitraj faoliyatining huquqiy tartibga solinishi, shuningdek, onlayn arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishning protsessual jihatlari ko'rib chiqilgan.

Onlayn arbitraj uchun yaratilgan qoidalar elektron shartnomalardan foydalanishga imkon beradi. Ular, shuningdek, qonuniy jarayon elektron aloqalarning tez sur'ati tufayli xavf ostida qolmasligini ta'minlashi kerak. Nihoyat, bunday qoidalar tartibga solish jarayonida almashiladigan hujjatlar va ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini himoya qilish uchun zarur bo'lgan

[1] Doctor's Associates, Inc. v. Casarotto, 517 U.S. 681 (1996), 687; Perry v Thomas, 482 U.S. 483 (1987). – P. 492–493.

choralarni ko'rishi lozim. Bu esa qarorni sodda va tejamkor bo'lgan tarzda ijro etishning zarur mexanizmlari orqali amalga oshirilishi darkor.

Tomonlar jarayonni o'tkazish uchun turli xil elektron aloqa vositalarini tanlashlari mumkin. Har bir vosita o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Shu sababli tomonlar har bir holatda nizo va nizolarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda eng qulay vositalarni ko'rib chiqishlari lozim.

Barcha holatlarda, tomonlar tanlagan aloqa vositalari va boshqa protsessual qoidalar jarayonning maxfiyligi va xavfsizligini kafolatlashi hamda tegishli qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashi kerak.

Tomonlar qarorni ijro etish uchun suddan tashqari mexanizmlarni tanlashlari mumkin, masalan, ishonch yorliqlaridan foydalanish, kredit kartalari bo'yicha avtomatik to'lovlar va boshqa texnologik mexanizmlarni qo'llash shular jumlasidandir.

Turli mahalliy qoidalardagi tafovutlarga yo'l qo'ymaslik uchun onlayn arbitraj qoidalarini uyg'unlashtirish lozim. Uyg'unlashtirilgan qonunchilik bazasi turli millatdagi bahsli shaxslarga jarayon bo'yicha qo'llanilishi mumkin bo'lgan qoidalarga nisbatan ishonchni ta'minlaydi. Biroq uyg'unlashtirishga erishish qiyin vazifa bo'lishi mumkin, chunki xalqaro konvensiya bo'yicha muzokaralar ko'p yillar davom etishi ehtimoli mavjud. Namunaviy qonun qonunchilik bazasini uyg'unlashtirishga yordam beradi, biroq u moslashuvchan vosita ekanligi sababli uyg'unlashtirish darajasi pastroq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ushbu mavzu bo'yicha uyg'unlashtirilgan qonunchilikka ega bo'lishning eng amaliy usuli bu har bir mamlakatda qabul qilinishi uchun barcha mamlakatlarni namunaviy qonun bilan ta'minlashdir.

Yuqorida aytilganlarning barchasini inobatga olgan holda, biz ushbu dissertatsiyaning ikkinchi bobi bo'yicha quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

An'anaviy arbitrajning amaldagi qonunchilik bazasi onlayn shakldagi arbitrajga nisbatan qo'llanilishi mumkinmi?

An'anaviy arbitraj uchun amaldagi qonunchilik bazasi onlayn arbitraj jarayonini o'tkazish imkoniyatiga to'sqinlik qilmaydi. Biroq onlayn arbitraj uni an'anaviy arbitrajdan ajratib turadigan va maxsus qoidalarni talab qilishi mumkin bo'lgan xususiyatlarga ega. Masalan, onlayn arbitraj faqat elektron aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi va bunday vositalardan foydalanishni tartibga solish kerak. Xuddi shunday, elektron hujjatlar va imzolardan foydalanish arbitrajning amaldagi qonunchilik bazasida mavjud bo'lmagan maxsus qoidalar to'plamini talab qiladi.

Shu sababli arbitrajning amaldagi qonunchilik bazasi onlayn tartibni ta'qiqlamasa ham, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning huquqiy bazasini loyihalash foydali bo'ladi. Bunday qonunchilik bazasi elektron aloqa vositalaridan foydalanishni tartibga solishi kerak. Elektron hujjatlar va imzolarning haqiqiyligini tan olish hamda jarayonning adolatliligi, xavfsizligi, shuningdek, maxfiyligini ta'minlash bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlarni belgilab berishi ham lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, onlayn arbitraj an'anaviy arbitraj uchun qo'llaniladigan qonunchilik bazasi bilan qamrab olinmagan ma'lum xususiyatlarga

ega. Shuning uchun uni an'anaviy arbitrajdan ajratib turadigan maxsus xususiyatlarni tartibga soluvchi qoidalar to'plami talab qilinadi.

Ushbu qoidalar elektron shartnomalar tuzishga ruxsat berishi, elektron aloqa vositalaridan foydalanishni tartibga solishi, taraflarni arbitraj jarayonida almashiladigan hujjatlar va ma'lumotlarning maxfiyligi hamda xavfsizligini himoya qilish uchun xavfsizlik mexanizmlarini joriy etishga majburlashi, elektron hujjatlar, qolaversa, imzolardan foydalanishga ruxsat berishi, arbitraj sudining hal qiluv qarorini sodda, shuningdek, samarali ijro etish mexanizmlarini yaratishi lozim.

Arbitraj kelishuvi — bu shartnoma bo'lib, unga ko'ra tomonlar o'z kelishmovchiligini sudda yoki boshqa ADR (nizolarni muqobil hal etish) tashkilotlarida emas, balki onlayn arbitraj tartibida hal qilishga rozi bo'ladilar.

Arbitraj kelishuvi yozma shaklda bo'lishi kerak, shartnomani elektron aloqa vositalari orqali tuzish mumkin. Tomonlarning roziligi ularning qo'lyozma yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

Onlayn arbitraj shartnomasi hech bo'lmaganda arbitrajda ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan nizolarni o'z ichiga olishi lozim. Elektron aloqa vositalaridan foydalanish tartibi, ular bildirishnomalarni oladigan axborot tizimi va sud xabarnomalarini olish uchun ularning geografik joylashuvi, shuningdek, ushbu tartibda almashiladigan ma'lumotlarning maxfiyligi hamda yaxlitligini himoya qilish maqsadida ko'riladigan xavfsizlik choralari ham arbitraj shartnomasida ko'rsatib o'tilishi joiz.

Onlayn arbitraj tartib-qoidasi shunday ishlab chiqilishi kerakki, jarayonning tezkorligi tomonlar o'rtasidagi adolat va tenglikka ta'sir qilmasligi lozim. Dalillarni taqdim etish, xolislik va oqilona vaqt ichida qaror qabul qilish huquqi kabi asosiy protsessual kafolatlarga rioya qilinishi shart.

Onlayn arbitraj qoidalari har ikki tomonning elektron aloqa vositalaridan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlashi va bu vositalardan foydalanish oson, har ikki tomon uchun ham ochiq bo'lishi hamda barcha dalillar va hujjatlarni taqdim etishiga imkon berishi kerak.

Nihoyat, jarayon arbitrajda almashilgan ma'lumotlarning yaxlitligi va maxfiyligini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishi joiz.

„Raqamli (elektron) arbitraj va uning huquqiy tartibga solinishi" deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida xalqaro arbitrajni raqamlashtirish va nizolarning sun'iy intellekt tomonidan hal etilishi masalalari, raqamli (elektron) arbitraj qo'llanilishining xalqaro tajribasi (Amerika Arbitraj Assotsiatsiyasi, CyberSettle va Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti misolida) va raqamli (elektron) arbitraj faoliyatini huquqiy tartibga solish hamda uning qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari tahlil qilingan.

Ushbu bobdan ma'lum bo'lishicha, protsesslar an'anaviy va elektron arbitraj jarayonlarida nizolashayotgan tomonlarning roziligi bilan sudlarni shakllantirishni talab qiladi. Shuningdek, har ikki turdagi arbitrajlar ham o'zaro tanlangan arbitrlarga muhtoj. Qolaversa, bahsli tomonlar o'rtasida kelishuvga erishilmasa, arbitraj sudi o'tkazilayotgan hududning milliy sudi tomonlar nomidan arbitrni tayinlashi mumkin.

Xorijiy arbitraj qarorlarini milliy qarorlardan ajratib turuvchi omillarni aniqlash uchun, avvalo, bir qancha qarama-qarshiliklar va sabablarni oydinlashtirib olish kerak. Shunday qilib, bir xillik masalalari nizo taraflarining fuqaroligiga, "joy" hududiga yoki hakamlik muhokamasiga qo'llaniladigan majburiy qonunga, yoki qaror "joyi"ga nisbatan ko'rib chiqilishi mumkin. Yuridik va sud nuqtayi nazaridan, qaror chiqarilgan joy milliy va xorijiy arbitraj o'rtasidagi mezonlarni ajratib turadi. Ushbu o'ziga xos mezon 1958-yildagi Nyu-York Konvensiyasida belgilab berilgan, chunki u chet el arbitraj qarorlarini ijro etishni tan oladi. Shuning uchun Nyu-York Konvensiyasiga a'zo davlatlar ushbu amaliyotni aks ettiruvchi qonunlarga ega bo'lishi kutilmoqda, bu orqali esa xorijiy arbitraj qarori o'z hududida kuchga kiradi.

Birinchidan, davlatlar, odatda, o'zlarining arbitraj qonunlarini keraksiz majburiy elementlar uchun qayta ko'rib chiqishlari kerak. Muhokama qilinganidek, xususiy avtonomiya va shartnoma erkinligi arbitrajning asosidir. Arbitraj qonunlari, agar jiddiy sabablar boshqa nuqtai nazarni ko'rsatmasa, majburiy emas, balki imkon beruvchi bo'lishi lozim. Teng munosabatda bo'lish va o'z da'vosini taqdim etish huquqi ana shunday jiddiy sabablardir. Ammo amaliy protsessual qoidalar haqida gap ketganda, taraflar avtonomiyasi hukmronlik qilishi kerak. Masalan, yurisdiksiya sud majlislarida shaxsan ishtirok etish majburiyatini yuklamasligi yoki guvohlarning shaxsan guvohlik berishini talab qilmasligi kerak. Chunki bunda dalillarni olishga turli sharoitlar to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi sharoitida sayohatchilarga qo'yilgan karantin qoidalari haqida ham o'ylab ko'rish lozim.

Ikkinchidan, davlatlar arbitrajlar uchun mashinalarni o'rganish vositalarini ishlab chiqishni yaxshilash maqsadida huquqiy ma'lumotlarni belgilashda yordam berishga harakat qilishlari kerak. Bunday vositalar hozirda (va yaqin kelajakda) arbitrajlar uchun SI (sun'iy intellekt) ilovalari bozorida hukmronlik qiladi. Sud qarorlaridan xalqaro savdoning "lingua franca", shu jumladan, ingliz tilida oson va erkin foydalanish mumkin bo'lishi kerak. Arbitraj sudlari o'z qarorlarini hech bo'lmaganda anonim shaklda e'lon qilishlari lozim. Bundan tashqari, sudlar, shuningdek, qarorlarni hech bo'lmaganda anonim shaklda nashr etishlari kerak. Shubhasiz, ko'pchilik tijorat ishtirokchilarining bir tomondan maxfiylikni afzal ko'rishi va boshqa tomondan texnologiyaga mos arbitraj qonunlariga kirishi o'rtasida keskinlik bor. Qaysidir ma'noda, maxfiylikni qisqartirish yoki olib tashlash, bahslashayotgan tomonlar yaxshiroq xizmat uchun to'lashi mumkin bo'lgan narx sifatida tushunilishi mumkin.

Uchinchidan, arbitrajga layoqatlilik tushunchasi an'anaviy arbitrajda ham, elektron arbitrajda ham farq qilmasa-da, ba'zi davlatlar ba'zi arbitraj nizolarini elektron ish yuritishda arbitrajga layoqatlilik doirasidan chiqarib tashlashni xohlashlari mumkin. Delokalizatsiya nazariyasi tarafdorlari "chet el" arbitraj qarori tushunchasini elektron qarorning tabiatiga mos keladi, deb hisoblashadi. Biroq delokalizatsiya nazariyasi Nyu-York Konvensiyasining amaldagi qoidalariga zid keladi. Uning 5(1)(e)-moddasida agar sud qarori sud qarori chiqarilgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq majburiy kuchga ega bo'lmasa, ijro so'ralayotgan mamlakat sudi ijroni rad etishga haqliligi nazarda tutiladi.

Boshqa bir nuqtayi nazarga ko‘ra, bu farq arbitraj sudining haqiqatiga e’tibor bermaslikdir, chunki sud qoidalarini chiqarish arbitrajdan qaror ijro etiladigan hududning milliy davlat siyosatini hisobga olishni talab qiladi. Shunday qilib, barcha arbitraj qoidalari arbitrajning “joy”iga unchalik e’tibor bermagan holda yagona organ nazorati ostida bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi .

Adabiyotlarni ko‘rib chiqish natijasida aniqlangan ba’zi fikrlar rivojlanayotgan mamlakatlarning arbitraj ko‘rsatmalariga shubha bilan qarashlarni oqlaydi. Ko‘pincha, bu qarorlar G‘arb davlatlarida joylashgan Xalqaro arbitraj markazi nazorati ostida xorijiy davlatda chiqariladi. Bahs bitta iste’molchi yoki turli millatlarga mansub kompaniyalar guruhini o‘z ichiga olishi mumkin. Statistik ma’lumotlar xorijiy davlatlarda tuzilgan arbitraj ishlarining 90% yoki undan ko‘prog‘i rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan yutqazilganini ko‘rsatib, bu shubhani oqlaydi.

Biroq, hozirgi vaziyat shundan iboratki, Nyu-York Konvensiyasining 3-moddasida konvensiyani imzolagan har bir a’zo davlatda adolatni ta’minlash uchun xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish nazarda tutilgan.

Ba’zi huquqshunos olimlarning fikricha, elektron arbitrajning an’anaviy oflayn arbitrajning mantiqiy rivojlanishi va uning usullari sifatida qabul qilinishini, ammo an’anaviy arbitraj tamoyillari elektron muhit uchun yetarli emasligi haqida bahslashmoqda. Boshqa tomondan, bir qator tadqiqotchilar elektron arbitrajni an’anaviy arbitraj talablari va tamoyillariga rioya qilmasdan haqiqiy emas deb hisoblaydilar. Bu yerda ular bahslashayotgan tomonlar o‘rtasida “yozish” va F2F (yuzma-yuzma) sessiyalari talabiga ishora qiladilar. Biroq hozirda yangi texnologik ishlanmalar bilan an’anaviy arbitraj sudining modelidan foydalanadigan gibrid arbitraj uslubi mavjud. Elektron arbitraj protseduralari virtual hamjamiyatning zamonaviy onlayn muhitiga mos keladi. Bunda nizolar, asosan, elektron vositalar orqali yuzaga kelishi mumkin va shuning uchun elektron vositalar orqali tezda hal qilinishi kerak. Shu bilan birga, elektron arbitraj bilan bog‘liq bir qator muhim muammolar mavjud, ya’ni uning an’anaviy xalqaro tijorat arbitrajining asosiy tamoyillariga rioya qilmasligi bunga misoldir. Qolaversa, tomonlar undan to‘g‘ri foydalanish uchun zarur texnik qobiliyat va tajribaga ega bo‘lishlari tabiiy deb hisoblanadi. Bundan tashqari, quyidagi muammolar mavjud:

- elektron arbitraj jarayonining maxfiyligi va xavfsizligi;
- tegishli aloqalar;
- onlayn rejimda arbitraj muhokamasini tashkil etish va o‘tkazish;
- tegishli ma’lumotlarning yaxlitligi;
- tegishli hujjatlarning autentifikatsiyasi.

Xususan, BAAda turli yoshdagi odamlarning savodsizligi bilan bir qatorda, Internetdan tranzaksiyalar uchun foydalanish bilan bog‘liq muammolar ham mavjud ekanligini ta’kidlash mumkin. Sharhlovchilar buni milliy aholi uchun AKT (axborot kommunikatsiyalari va texnologiyalari) bo‘yicha o‘qitishning yetishmasligida ekanligini aniqladilar. Bu shuni anglatadiki, BAAdagi odamlarning katta qismi arbitraj u yoqda tursin, bir qator onlayn xizmatlarni ham samarali amalga oshira olmaydilar.

Bundan tashqari, BAA jamiyatining jamoaviylik tabiati ham elektron arbitrajdan keng foydalanishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Birlashgan Arab Amirliklari universitetining tijorat huquqi professori bilan suhbatda u elektron arbitrajga to‘siq bo‘layotgan narsa bu odamlarning unga bo‘lgan ishonchi va ular bu g‘oyani qanchalik ochishga tayyorligi ekanligini ta’kidladi. Abu Dabi qimmatli qog‘ozlar islom banki BAA fuqarolari elektron arbitraj haqida ko‘proq ma’lumot olishlari kerakligini ta’kidladi, chunki ko‘pchilik uning qanday ishlashi bilan tanish emas.

„O‘zbekiston Respublikasida onlayn va raqamli arbitrajni qo‘llash hamda tartibga solish masalalari” deb nomlangan dissertatsiyaning to‘rtinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida nizolarni onlayn va elektron hal etish tizimini tatbiq etishning o‘ziga xos jihatlari hamda O‘zbekiston Respublikasida onlayn va elektron arbitraj faoliyatini tashkil etish va qarorlar ijrosini ta’minlashga doir qonunchilikni takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.

Ushbu bobda, birinchi navbatda, arbitraj sudining “nizo masalasi bo‘yicha majburiy va hal qiluvchi qaror” sifatidagi ta’rifini kiritish orqali arbitraj qarori bo‘yicha munozara boshlashga harakat qilindi. Keyinchalik bahs elektron arbitraj qarorlarini chiqarishga qaratildi va ta’kidlanganidek, arbitraj uchun o‘zaro “joy”ga rozi bo‘lishda nizolashayotgan tomonlar sukut bo‘yicha sud qarori chiqarilgan joyni hal qiladilar.Garchi buni ma’lum bir mamlakatning davlat siyosatiga nisbatan qo‘llash qiyin bo‘lsa-da, u “delokalizatsiya nazariyasi” tomonidan kafolatlangan. Taqdim etilgan yechim elektron arbitrajni elektron shartnoma sifatida ko‘rib chiqishni va shu tariqa BMTning “Xalqaro shartnomalarda elektron aloqalardan foydalanish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi mandati ostida darhol tan olishni taklif qiladi.

O‘zbekistonda hakamlik sudlari, xalqaro arbitraj, onlayn va elektron arbitraj faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mamlakatda olib borilayotgan sud islohotlarini ta’minlash va iqtisodiyotni liberallashtirish, shuningdek, xususiylashtirishni kengaytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar sonini ko‘paytirish va ular o‘rtasidagi nizolarni hal etishga yordam beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, dunyo mamlakatlarida kapital aylanib turmasa, xo‘jalik yuritish samarali bo‘lishi mumkin emas. Sanoati rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti investitsiyalarga asoslangan sanoat kapitalining aylanib turishiga bog‘liqdir. Qonun ustuvorligi — bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir. U yoki bu mamlakatda mavjud ijobiy investitsion muhit va xalqaro hamjamiyatning investitsion nizolarni samarali hal etish qobiliyati birgalikda investorlarning muayyan mamlakatga investitsiyalarni kiritishiga turtki bo‘la oladi.

O‘zbekistonda biznes subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda nizolarni hakamlik sudlarida hal qilish mexanizmining joriy etilgani alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekston Respublikasi Adliya vazirligi xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta’minlash, xalqaro

hamjamiyat, xorijiy investorlarni milliy huquq tizimi va o‘tkazilayotgan huquqiy islohotlar haqida o‘z vaqtida xabardor qilish sohasida xalqaro arbitraj va sud muhokamalari masalalari bo‘yicha xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta’minlashda Tashqi ishlar vazirligi hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan idoralararo hamkorlikni amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston sud organlari tomonidan 200 dan ortiq doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudlari ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 160 tasi O‘zbekiston hakamlik sudlari assotsiatsiyasi va uning vakolatxonalari, 15 ta savdo-sanoat palatasi va uning hududiy bo‘linmalari va 30 ta boshqa yuridik shaxslardir.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, sudya kelishuv bitimini tuzish yoki nizoni muqobil hal qilish imkoniyatini aniqlaydi va huquqiy oqibatlarini tushuntiradi. Jahon amaliyotidan ma’lumki, yuridik jamiyatda nizolarni hal qilishning muqobil mexanizmlarini yaratish jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklashga erishishning samarali vositasi hisoblanadi.

O‘zbekistonning ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va sarmoyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida korxonalarda xorijiy investorlarning huquq va manfaatlari samarali himoya qilinishi lozim. Ammo bunga to‘sqinlik qiladigan bir qator tizimli muammolar mavjud. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilik, jumladan, “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni tomonlarning xorijiy arbitrlarni jalb qilish va chet el qonunlarini qo‘llash bilan aloqador xalqaro arbitraj standartlariga muvofiq investitsiya nizolarini ko‘rib chiqish imkoniyatlarini cheklaydi. Qolaversa, O‘zbekistonda xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etishning aniq huquqiy mexanizmlarining yo‘qligi xorijiy investorlarning mamlakat sud tizimiga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa mamlakatning sarmoyaviy jozibadorligini pasaytiradi. Shuningdek, mahalliy hakamlarni hamda xalqaro arbitraj sohasidagi boshqa mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo‘lga qo‘yilmagan.

O‘zbekiston milliy qonunchiligida tadbirkorlikni himoya qilish to‘g‘risidagi bir qancha qonunlar mavjud. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”, “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”, “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar kabilar bunga misol bo‘ladi.

Tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozim. Buning uchun xorijiy sarmoyalar va ilg‘or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo‘ladi.

Shu bilan birga, biznesga xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga va O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirishga imkon bermaydigan qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan:

birinchidan, amaldagi qonunchilik, shu jumladan, „Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni tomonlarning investitsiya nizolarini xalqaro arbitraj standartlariga muvofiq ko‘rib chiqish, xorijiy hakamlarni jalb qilish va chet el qonunlarini qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi;

ikkinchidan, O‘zbekistonda xalqaro arbitraj qarorlarini ijro etishning aniq huquqiy mexanizmlarining yo‘qligi xorijiy investorlarning mamlakat sud tizimiga bo‘lgan ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda va shu bilan mamlakatning sarmoyaviy jozibadorligini pasaytirmoqda;

uchinchidan, mahalliy hakamlarni va xalqaro arbitraj sohasidagi boshqa mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo‘q.

Nizolarni onlayn hal qilish va ijro etish bo‘yicha milliy qonunchilik mavjud emas, chunki ODR (nizolarni onlayn hal etish) platformalaridan foydalanish bilan bog‘liq yana bir masala — bu onlayn yechim qo‘llashni majburlash. Qaysi sud qarorni bajarishi kerak — hakamlik bitimi imzolangan joy sudi, hakamlik sudi, qaror qabul qilingan joyning sudi, OPC (Sanoatlashgan sohalarda ma’lumotlarni xavfsiz almashish uchun ochiq muloqot platformasi) obyekti jismonan joylashgan joyi yoki Internet serverlar o‘rnatilgan joy?

Ushbu tadqiqotda turli xil huquqiy tizimlarga asoslangan hakamlik tizimlari rivojlangan mamlakatlar tajribasi o‘rganildi, xususan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapur, MDH davlatlari, Qozog‘iston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan UNCITRAL model qonuni shular jumlasidan.

Xalqaro arbitraj xalqaro savdo, tijorat va sarmoyaning deyarli barcha sohalarida biznes hamkorlar o‘rtasidagi nizolarni hal qilishning maqbul usuliga aylandi. Xalqaro arbitraj taraflarga nizolarni shaxsiy, maxfiy, iqtisodiy va vaqtni tejaydigan usulda, o‘z xohishiga ko‘ra neytral sudda hal qilishga imkon beradi. Ammo kimdir maxfiylikni hakamlik sudining eng muhim jihati deb biladi va sud jarayonini hal qiluvchi narsa deb hisoblaydi.

Elektron arbitraj qarorining chiqarilishi bir qator huquqiy oqibatlarga ega bo‘lib, ulardan eng muhimi elektron arbitraj qarori chiqarilgandan so‘ng darhol qonuniy kuchga kirishi va qonuniy kuchga ega bo‘lgandan keyin darhol ijro qilinishidir. Bu esa agar yangi qonuniy yoki faktik dalillar mavjud bo‘lsa ham, agar sud qarori bekor qilinmagan bo‘lsa ham, nizoni sudda qayta ko‘rib chiqishning oldini oladi. Ushbu oqibatlarning birinchisi, tomonlarni sud qarori to‘g‘risida xabardor qilishdir, chunki bu xabarnoma qarorni ijro etish bosqichini boshlaydigan birinchi protsedura hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, muhokama qilinadigan ikki jihat bor: qaror haqida xabar berish va qarorni ijro etish.

Qaror elektron shaklda onlayn tarzda taqdim etiladi va tomonlar elektron arbitraj provayderi yoki/va arbitraj sudi tomonidan xabardor qilinadi. Ushbu elektron xabarnoma tomonlarga qarorning mazmuni haqida ma’lumot beradi va ixtiyoriy ravishda unga rioya qilishga, uni amalga oshirishga yoki unga nisbatan murojaat qilishga tayyorlanish imkonini beradi. Ba’zi milliy qonunlarda arbitrajda qarorlar to‘g‘risida elektron xabar berish bilan bog‘liq muammo yoki tashvish yo‘q va Angliya hamda Uels kabi ba’zi mamlakatlar bunga juda liberal yondashadi.

Ingliz arbitraj qonunining (1996) 55(1)-bandiga muvofiq, tomonlar qaror to‘g‘risida xabar berishga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha kelishib olishlari mumkinligi ta’kidlanadi.

Bunday holda, tomonlar arbitraj qarori elektron arbitrajda tez-tez uchraydigan elektron pochta orqali xabardor qilinishi yoki ular uchun ochiq bo‘lgan xavfsiz platformaga yuklanishi kerakligiga rozi bo‘lishlari mumkin.

XULOSA

Xalqaro arbitraj faoliyatini raqamlashtirish va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari mavzusida o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqildi:

1. Raqamli makonda nizolarni hal qilishga doir tushunchalar tizimi va ularning ta’riflari (o‘n bitta atamadan iborat konseptual apparat) shakllantirildi va ilmiy asoslandi:

Raqamli makonda nizolarni hal qilish — kibermakonda axborot, tovar, ishlar, xizmatlarni olish, foydalanish, egalik qilish, qayta ishlash va uzatish bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan shartnomaviy-huquqiy nizolarni raqamli vositalar ishtirokida hal etish jarayoni;

Raqamli arbitraj — kibermakonda elektron tizimlar yoki sun’iy intellekt tizimlari hamda elektron vositalar asosida nizoni ko‘rib chiqish elektron platformasi;

Nizolarni onlayn hal qilish (ODR) — bu sud majlisida taraflarning jismoniy ishtirokisiz nizolarni ko‘rib chiqib, onlayn platforma asosida faoliyat ko‘rsatadigan ixtisoslashgan hakamlik turi. Onlayn arbitraj ikkala onlayn muomala va tranzaksiyalardan kelib chiqadigan nizolar va oflayn rejimda yuzaga keladigan nizolar uchun ham qo‘llanilishi mumkin.;

Onlayn arbitraj yurisdiksiyasi — bu uning kibermakonda transchegaraviy elektron tijoratdan kelib chiquvchi nizoni ko‘rib chiqish vakolatini va mustaqil ravishda ushbu vakolatning mavjudligini hal qilish huquqini anglatadi;

Onlayn arbitraj kelishuvi — bu Internet tizimida elektron imzodan foydalangan holda real vaqt rejimida shartnomaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni alohida shartnoma yoki asosiy shartnomaga band sifatida kiritgan holda nizoni hal etish bo‘yicha kelishuv;

Onlayn arbitraj hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish — bu ko‘rib chiqilgan transchegaraviy elektron tijorat nizolari yuzasidan qabul qilingan qarorning offlayn qaror singari so‘zsiz tan olinishi va ijro qilinishi jarayoni. Qabul qilingan onlayn qaror quyi turuvchi yurisdiksiya sudiga murojaat qilinib, ijro varag‘i olingandan so‘ng offlayn qaror bilan teng yuridik kuchga ega bo‘ladi;

Elektron tijorat platformasi — bu taraflar, ya’ni sotuvchi va xaridor maxsus elektron dasturdan foydalangan holda o‘zi izlagan tovar, xizmat va ishlarni xuddi real hayotdagi do‘kondek sotishi/ijaraga berishi yoki sotib olishi/ijaraga olishi bilan bog‘liq tijoriy munosabatlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi kibermakondagi bozor;

E-auksion elektron savdo platformasi — bu elektron onlayn-auksionlar va tanlovlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, istagi bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning bunday auksionlar va tanlovlar jarayonlariga bevosita kirish va ishtirok etish imkonini ta’minlaydigan axborot tizimi;

Elektron onlayn-auksion — bu savdo platformasi orqali jismoniy va yuridik shaxslarga auksion obektini sotish (ijaraga berish) bo‘yicha narxni oshirib yoki tushirib borish tamoyilida onlayn o‘tkaziladigan savdo shakli;

Elektron logistika savdo portali — bu yuk tashish bo‘yicha elektron savdolar o‘tkazilishini, ular to‘g‘risidagi e’lonlar va boshqa zarur bo‘lgan axborotning elektron shaklda joylashtirilishini, elektron savdolar o‘tkazilishini ta’minlovchi operatorning maxsus veb sayti;

Elektron tizim — bu barcha manfaatdor shaxslar foydalana oladigan, yuk tashish bo‘yicha savdo subektlari o‘rtasida elektron savdolar o‘tkazilishini ta’minlaydigan tashkiliy, axborot va texnik vositalarning dasturiy majmuyi.

2. Nizolarni raqamli hal qilish huquqiy instituti vujudga kelganligi asoslandi. Nizolarni elektron hal etishda raqamli arbitraj masalasi va uning yurisdiksiyasi tahlil qilinib, bunda raqamli arbitraj sun’iy intellekt asosida ishni ko‘rib chiqishi, Internet tarmog‘ida hamda smart kontraktlar asosida vujudga keluvchi nizolarni hal etishda samarali mexanizmga aylanishi mumkinligi asoslab berildi. Shu bilan birga, raqamli arbitraj yurisdiksiyasi tegishli serverning joylashgan joy qonuni yoki tegishli domenni ro‘yxatdan o‘tgan joy qonuniga bo‘ysunishi to‘g‘risida maxsus kollizion normalar kiritilishi taklifi ishlab chiqildi.

3. Raqamli arbitraj mavjud arbitraj markazlari tomonidan joriy etilishi va ularning yurisdiksiyasiga bo‘ysunishi ideal holat ekanligi hamda uning qarorlari arbitraj markazi tomonidan rasmiylashtirilishi uning ijrosini ta’minlashga xizmat qilishi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi.

4. Elektron arbitraj (Raqamli arbitraj) va uning huquqiy tartibga solinishi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Xalqaro xususiy huquq munosabatlaridan kelib chiqib, yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hamda arbitraj sudiga taalluqli bo‘lgan nizo, taraflarning kelishuviga binoan, ko‘rish uchun arbitraj sudiga topshirilishi mumkin. Arbitraj sudi o‘z yurisdiksiyasiga, shu jumladan, arbitraj shartnomasining mavjudligiga yoki haqiqiyligiga yoxud nizoning predmetiga qo‘shilishiga qarshi har qanday e’tirozni qabul qilishi mumkinligi va arbitraj sudi da’voni dastlabki savol sifatida yoki mohiyat bo‘yicha yakuniy arbitraj sudi qarorida hal qilishi isbotlandi.

5. Elektron arbitrajda foydalanuvchilar, ularning ma’lumotlarini va huquqlarini himoya qilish, shuningdek raqamli arbitraj etikasi masalalari huquqiy tartibga solinishi zarurati asoslab berildi va konseptual jihatlari ko‘rsatib berildi.

6. Taraflar arbitrajni har qanday holat, protsessual tartib va muddatga muvofiq olib borishlari ve bu tartib quyidagi talablarga javob berishi kerakligi asoslandi:

I) taraflarga har doim o‘z dalillari va hujjatlarini taqdim etish uchun vaqt va imkoniyat beriladi;

II) taraflar har qanday tinglov muhokamasi yoki uchrashuv haqida oldindan xabardor qilinadi;

III) taraflar qarshi taraf taqdim etgan har qanday dalil yoki hujjatdan foydalanish va uni ko‘rib chiqish huquqiga ega.

Agar taraflar belgilagan qoidalar yuqorida ko‘rsatilgan talablarga mos kelmasa, jarayon haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi, agar qonun hujjatlariga rioya qilinsa va har ikki tomon o‘z da’vosini taqdim etishga ruxsat berilsa, tomonlar jarayonni o‘tkazish usulini erkin tanlashi mumkinligi asoslab berildi.

7. Onlayn arbitraj taraflarga jarayonni amalga oshirish usulini tanlash erkinligini berishi asoslab berildi. Bunda nizolarni hal qilish uchun eng maqbul shartlar va protsessual bosqichlarni tanlash imkoniyati yaratilishi, ushbu jarayon erkinligi turli sud an’analariga ega bo‘lgan mamlakatlarda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishi mumkinligi ko‘rsatib berildi.

8. Onlayn arbitraj faqatgina jarayonga nisbatan qo‘llanilib, an’anaviy arbitraj jarayonlari bilan bog‘liq boshqa qonun yoki qoidalarni bekor qilmasligi asoslab berildi.

9. Onlayn arbitrajni davom ettirish uchun taraflar onlayn arbitraj shartnomasini rasmiylashtirishlari lozimligi isbotlab berildi. Bunda onlayn arbitraj shartnomasi kamida quyidagi shartlarni o‘z ichiga olishi kerak:

I) onlayn arbitrajga sabab bo‘ladigan nizo yoki nizolar turi;

II) elektron aloqa vositalaridan foydalanish bo‘yicha kelishuv va ulardan foydalanish tavsifnomasi;

III) arbitr yoki arbitrlar saylanish uchun bajarishi kerak bo‘lgan talablar va ularni tayinlash tartibi;

IV) tomonlarning jug‘rofiy joylashuvi yoki ular aloqa va bildirishnomalarni oladigan joy;

V) elektron xabarlar va bildirishnomalarni oladigan taraflarning axborot tizimi manzili;

VI) nizoni hal qilish uchun amaldagi qonun va uni amalga oshirish uchun vakolatli sud;

VII) jarayonda almashiladigan ma’lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligini himoya qilish uchun ko‘riladigan xavfsizlik choralari;

VIII) dalillarni taqdim etish qoidalari.

Ushbu qoida arbitraj shartnomasida bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy moddiy talablarni belgilab beradi. Shartnoma jarayon uchun asosiy hisoblanadi va iloji boricha, to‘liq bo‘lishi kerak. Keltirilgan talablar faqat onlayn arbitrajning ishlashi uchun minimal asoslardir. Shu bilan birga, shartnomada taraflar jarayon davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan barcha vaziyatlarni, imkon qadar, batafsil bayon qilishlari kerak.

Bu talablarning ba’zilari ushbu shartnomani an’anaviy arbitraj shartnomasidan ajratish uchun ishlatiladi, dalillarni taqdim etish qoidalari yoki arbitrlarni tanlash kabi amaliy masalalarni hal qilish uchun boshqa talablar belgilanishi lozimligi isbotlandi.

10. Raqamli arbitrajni tartibga solishning bir usuli qaror qabul qilish jarayonida shaffoflikni talab qilishdir. Bu qaror qabul qilish jarayonida

foydalaniladigan algoritmlar va ma'lumotlar manbalarini oshkor qilishni, shuningdek, sun'iy intellekt arbitraj provayderlari o'z modellarini qanday o‘qitish va sinab ko‘rishlari haqida shaffof bo'lishini ta'minlaydigan qoidalarni yaratishni o'z ichiga olishi mumkinligi asoslab berildi.

11. Raqamli arbitrajni tartibga solishning yana bir yondashuvi raqamli arbitraj provayderlarini o‘z qarorlari uchun javobgarlikka tortadigan nazorat mexanizmlarini o'rnatishdir. Bu raqamli arbitraj provayderlarini nazorat qiluvchi va ularning qaror qabul qilish jarayonlari uchun standartlarni belgilaydigan tartibga soluvchi organni yaratishni o'z ichiga olishi isbotlandi.

12. Olib borilgan tadqiqotlarga asosan, raqamli arbitraj tizimlari sun’iy ekanligini hisobga olib, yolg‘onni aniqlash va yumshatish choralarini qo'llash orqali raqamli arbitrajni tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bu sun'iy intellekt arbitraj provayderlaridan o‘z tizimlarini yolg‘on guvohlik uchun muntazam ravishda sinab ko‘rish va tekshirishni, aniqlangan har qanday yolg‘onni kamaytirish uchun choralar ko‘rishni talab qilishni o‘z ichiga olishi mumkinligi ko‘rsatib berildi.

13. Tahlillarga asosan, raqamli arbitraj adolat, hisobdorlik va shaffoflik masalalari kabi muhim axloqiy sifatlarga amal qilinishi yuzasidan shubha keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu xavotirlarni bartaraf etish uchun raqamli arbitraj provayderlaridan kamsitmaslik, adolat va oshkoralik tamoyili kabi axloqiy ko'rsatmalar va tamoyillarga rioya qilishlarini talab qiladigan qoidalar kiritilishi mumkinligi asoslab berildi.

14. Yana bir ilmiy yangi g‘oya - arbitrajda inson va raqamli arbitraj qarorlarini birlashtirgan gibrid modellar imkoniyatlarini o‘rganishdir. Bu inson arbitrlariga qaror qabul qilishda yordam berish uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan tizimlarni ishlab chiqishni yoki inson va raqamli arbitraj qarorlarini qabul qilish kombinatsiyasidan foydalanadigan gibrid tizimlarni yaratishni o'z ichiga olishi isbolandi.

15. Aniqlanishicha, onlayn arbitraj kiberxavfsizlik va maxfiylik bilan bog'liq bo‘lgan kam uchraydigan muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun onlayn arbitraj provayderlaridan kiberxavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash bo'yicha qat'iy choralarni qo'llashni talab qiladigan qoidalar kiritilishi mumkin. Bu shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya kabi choralarni o'z ichiga olishi asoslab berildi.

16. Onlayn arbitraj xizmatlaridan foydalanishda foydalanuvchilarning himoyalanganligini ta'minlash uchun onlayn arbitraj provayderlari foydalanuvchi va provayder o'rtasida nizo yuzaga kelgan taqdirda nizolarni hal qilish mexanizmlarini taklif qilishni talab qiladigan qoidalar yaratilishi zarurati ko‘rsatib berildi. Bu onlayn arbitraj provayderlarini nazorat qiluvchi va foydalanuvchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqadigan tartibga soluvchi organni yaratishni o'z ichiga olishi asoslantirildi.

17. Onlayn arbitraj xizmatlarining sifati va ishonchliligini ta'minlash uchun onlayn arbitraj provayderlari uchun texnik standartlarni o'rnatadigan qoidalar qo'llanilishi mumkinligi ko‘rsatib berilib, ushbu standartlar ma'lumotlarni saqlash

va olish, ma'lumotlar xavfsizligi va platformadan foydalanish kabi muammolarni hal etishga xizmat qilishi ko‘rsatib berildi.

18. Tahlillarga asosan, onlayn arbitraj xizmatlari texnik tajriba darajasidan yoki jismoniy qobiliyatlaridan qat'i nazar, barcha foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lishi kerak. Buni hal qilish uchun onlayn arbitraj provayderlaridan veb-kontentga kirish bo'yicha ko'rsatmalar (WCAG) kabi foydalanish ko'rsatmalariga rioya qilishni talab qiladigan qoidalar kiritilishi lozimligi isbotlandi.

19. Tadqiqot doirasida, sun'iy intellekt (SI) tezroq, samaraliroq va tejamkor jarayonlarni amalga oshirish orqali nizolarni hal qilishda inqilob qilishi mumkinligi isbotlangan.

20. Tadqiqot doirasida nizolarni hal qilishda sun'iy intellektdan foydalanishga qaratilgan va ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik, intellektual mulk va sun'iy intellektga asoslangan qarorlar uchun javobgarlik kabi muammolarni hal qiladigan yangi qonun qabul qilish zarurati va talabi isbotlangan.

SI arbitraji (raqamli arbitraj) va nizolarni onlayn hal qilishni tartibga soluvchi qonunga kiritilishi lozim bo‘lgan quyidagi asosiy tamoyillar ishlab chiqilgan:

Adolat va xolislik tamoyili, shaffoflik tamoyili, ochiqlik tamoyili, ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik tamoyili, hisobdorlik/mas'uliyat tamoyili, qonuniy muvofiqlik tamoyili.

21. Tahlillarga asosan, SIga asoslangan nizolarni hal qilish jarayonlarining bir xilligini ta'minlash maqsadida xalqaro standartlarni o'rnatish kerak. Ushbu qabul qilinajak, SI arbitraji (raqamli arbitraj) xalqaro standartlarida sun'iy intellektga asoslangan qarorlar qabul qilishning axloqiy va huquqiy oqibatlarini ko‘rib chiqishi lozimligi isbotlandi.

22. SI arbitraji (raqamli arbitraj) va nizolarni onlayn hal qilishning huquqiy tartibga solinishi yangi qonunlar, xalqaro standartlar, kontseptual asoslar, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish, hamkorlikdagi tadqiqotlar, ta'lim va o'qitish dasturlarini talab qiladi. Ushbu sa'y-harakatlar sun'iy intellektga asoslangan nizolarni hal qilish jarayonlari adolatli, shaffof va xolis bo'lishini ta'minlashga yordam beradi.

23. Tadqiqot davomida, SI arbitraji (raqamli arbitraj) va nizolarni onlayn hal qilish foydalanuvchilari uchun “Axloq kodeksi” zarurligi isbotlandi, bu jarayonlar barcha ishtirokchilar uchun adolatli va teng qo‘llanilishi ta'minlanishi lozimligi asoslantirildi. Qabul qiiingan kodeks foydalanuvchilarning ushbu texnologiyalardan foydalanishda mas'uliyatli va axloqiy tarzda harakat qilishlarini ta'minlash uchun amal qilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar va standartlarni taqdim etishi kerak. Ushbu kodeksga asosan, taqdim etilgan ma'lumotlar himoya qilinishi, maxfiylik ta’minlanishi va qaror qabul qilishda neytrallikka amal qilinishi lozimligi singari talablar joriy etilishi isbotlandi. “Axloq kodeksi”ning qabul qilinishi taraflarga SI tomonidan nizolarni hal qilish jarayonlariga ishonchni mustahkamlashga yordam berishi asoslab berildi. Umuman olganda, “Axloq kodeksi” sun'iy intellekt yordamida nizolarni hal qilish jarayonlarining adolatli, shaffof va axloqiy tarzda ishlashini ta'minlashi uchun juda muhimligi isbotlab berildi.

24. Raqamli arbitraj va nizolarni onlayn hal qilish bo'yicha SI reglamenti uchun ishlab chiqilishi zarur bo'lgan quyidagi kontseptual huquqiy asoslar qabul qilinishi lozimligi isbotlandi: *ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik, algoritmik shaffoflik, adolat va xolislik, qonunga muvofiqlik, foydalanish imkoniyati, hisobdorlik/mas'uliyat tamoyili.*

25. Dissertatsiya doirasida, onlayn arbitraj nizolarni hal qilishning innovatsion modellari uchun imkoniyatlarni taqdim etishi ko‘rsatib berildi. Innovatsion modellarga asoslangan xizmatlarni taklif qiluvchi onlayn arbitraj provayderlarini rag'batlantirish yoki provayderlardan xizmat takliflarining bir qismi sifatida taklif qilishni talab qilish orqali bunday modellarni ishlab chiqish va joriy qilishni rag'batlantirishi zarurligi asoslantirildi.

26. Ish yuritish jarayonida elektron shaklda taqdim etilgan, almashtirilgan yoki yaratilgan barcha hujjatlardan foydalanish mumkin bo‘lishi hamda taraflar barcha xabar almashish bilan bog‘liq quyidagi qoidalarga amal qilishi lozimligi asoslab berildi:

I) taraflar barcha xabarlar yuborilishi kerak bo‘lgan manzilni ko‘rsatishi kerak;

II) taraflar ish yuritish bilan bog‘liq barcha xabarlarni o‘zlari ko‘rsatgan manzilga yuboradilar. Kelishilgan elektron aloqa vositalari orqali va taraflar ko‘rsatgan manzilga yuborilmagan har qanday aloqa yuridik kuchga ega bo‘lmaydi.

Ushbu qoida onlayn arbitraj tartibida taraflar o‘rtasidagi muloqotning xususiyatlarini belgilab beradi.

Taraflar o‘rtasidagi xabarlarning xarakteristikasi xabar yuboruvchidan kelganligiga ishonch hosil qilish uchun yetarli bo‘lishi va xabarning o‘zgarmasligini hamda jo‘natuvchining xabarni yuborganligini inkor eta olmasligi lozim.

27. Taraflar arbitraj muhokamasi joyi uchun istalgan manzilni tanlashlari mumkinligi, biroq onlayn arbitraj jarayonining xususiyatini hisobga olgan holda, taraflar arbitraj muhokamasi joyini tanlashi yoki ko‘rsatishi shart emasligi isbotlab berildi.

28. Agar taraflar arbitraj uchun joy tanlamaslikka qaror qilsalar, ular har qanday holatda ham quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatishlari kerakligi asoslab berildi:

I) arbitrlar nizoni hal qiladigan moddiy huquq. Tomonlar nizoni *ex ayequo et bono* sifatida hal qilish uchun arbitrlarga ruxsat berishlari mumkin;

II) arbitraj jarayonidan kelib chiqadigan har qanday nizolarni hal qilish uchun vakolatli yurisdiksiya;

III) qarorni ijro etish bo‘yicha vakolatli yurisdiksiya.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, onlayn va raqamli arbitraj qoidalarini milliy qonunchilikda aks ettirish, shuningdek, UNCITRAL namunaviy qonuniga hamda Nyu-York Konvensiyasiga ham tegishli o‘zgartirish kiritilishi zarurati asoslab berildi.

Bularning barchasi O‘zbekiston Respublikasida xalqaro raqamli va onlayn arbitraj faoliyatini huquqiy tartibga solish samaradorligini oshiradi, milliy darajada

huquq ustuvorligi hamda huquqni himoya qilish usullariga murojaat qilishning ta'minlanganligiga, shuningdek, mamlakat investitsiyaviy iqlimi jozibadorligi oshishiga xizmat qiladi.

SCIENTIFIC COUNCIL ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 AT THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

BAKHRAMOVA MOKHINUR BAKHRAMOVNA

ISSUES OF DIGITALIZATION AND IMPROVEMENT OF THE LEGAL FRAMEWORK OF INTERNATIONAL ARBITRATION

12.00.03 – Civil law. Business Law.
Family Law. International Private Law.

ABSTRACT
of doctoral (Doctor of Science) dissertation on legal sciences

Tashkent – 2023

The theme of the Doctor of Legal Sciences (DSc) dissertation was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.2.DSc/Yu199.

The doctoral dissertation is prepared at the Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (summary)) on the website of website of Scientific council (www.tsul.uz) and Information educational portal «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Scientific consultant:	**Rustambekov Islambek Rustambekovich** Doctor of Science in Law, Professor
Official opponents:	**Samet Tatar** Doctor of Science in Law, Professor
	Ahmedov Azizkhon Dilshodovich Doctor of Science in Law
	Yakubov Axtam Nusratilloevich Doctor of Science in Law
The leading organization:	**Lawyers' training center under the Ministry of Justice**

The defense of the dissertation will be held on July 13, 2023, at 10:00 at the session of the Scientific Council under the Scientific Council DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 at the Tashkent State University of Law. (Address: 100047, Sayilgokh street, 35 Tashkent city. Phone: (99871) 233-66-36; fax: (998971) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

The doctoral dissertation (DSc) is available at the Information-Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under No.1151), (Address 100047, Amir Temur street, 35. Tashkent city. Phone: (99871) 233-66-36).

Abstract of the dissertation submitted on June 27, 2023.

(Registry protocol № 29 of June 27, 2023).

B.K.Xodjayev
Vice-Chairman of Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, professor

D.Y.Khabibullayev
Scientific Secretary of Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy in Law, professor

S.S.Gulyamov
Chairman of Scientific Seminar under Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, professor

INTRODUCTION (abstract of DSc thesis)

The actuality and relevance of the dissertation theme. International trade relations and investment activities are developing rapidly in the world. At the same time, there are many disputes related to them. International trade and investment dispute resolution are the urgent issues facing the world community in today's fast-paced world. Due to this demand, several types of dispute resolution are being developed. After the COVID-19 pandemic, online dispute resolution was rated as the most convenient system in the digital environment as the most demanding method of dispute resolution. According to statistics and reports of centers specializing in online dispute resolution at the end of 2021, 46.72% (78,440) of cases considered for online dispute resolution were cross-border disputes and 53.28% (89446) are included in the category of national disputes. Among them, the sectors that caused the most disputes are airlines (aviation sector (15.9%), online clothing store (9.87%), trading of goods related to information technologies (6.69%), hotel services (3.99%), etc. The largest number of appeals for online dispute resolution is in the Federal Republic of Germany (1456), Austria (486), Hungary (190), the Netherlands (142) and other countries contribute [1].There are more than 200 digital platforms aimed at resolving new disputes (digital arbitration), and more than 1000 disputes have been considered. These figures are a prime example of the importance of effective dispute resolution in the digital environment[2].

Developed to resolve disputes worldwide in a digital environment, the program works only online. Unlike other court software that provides an online interface for discrete tasks, such as online filing of documents and online hearings, users of Alternative Dispute Resolution (ADR) do not go to court for traditional requests. The program is not a technological platform designed for making court decisions, but a tool to assist the court in resolving the disputes or cases of the applicants. Dispute resolution in a digital environment enables parties to resolve disputes confidentially, quickly, at their own discretion, and impartially, and to ensure that the decision is enforced worldwide. In this regard, special attention is being paid to the wide introduction of information technologies in this field. Also, it is necessary to clearly define the basis of the organization of its activity and regulatory mechanisms. It should be noted that today, as a research direction of significant scientific and practical importance, the issues of reviewing the dispute, determining the right and authority to resolve it, canceling the review of the dispute on the online platform, or recognizing and enforcing its decision special attention is being paid.

In our republic, systematic work is being carried out in the field of ensuring the rule of law, judicial system, and alternative dispute resolution mechanisms, improving the investment environment, effectively regulating foreign trade activities, and guaranteeing the rights of subjects in the direction of rapid business development. "Active attraction of foreign investments to sectors and regions of our country's

[1] https://ec.europa.eu/consumers/odr/main/?event=main.statistics.show
[2] https://odr.info/provider-list/ . http://www.odreurope.com/odr-services/odr-platforms-apps

economy by improving the investment environment"[1] has been evaluated as one of the priority directions of the development of the economic and social sphere. In this direction, further improvement of law enforcement practice is of urgent importance.

The Civil Code[2] of the Republic of Uzbekistan of August 29, 1996, The Code of Economic Procedure[3] of January 24, 2018, and the Laws on "On Informatization" №. LRU-560-II of December 11, 2003, "On Arbitration Courts" №. LRU-64 of October 16, 2006, "On Electronic Commerce" №. LRU-385 of May 22, 2015, "On Investments and Investment Activities" №. LRU-598 of May 25, 2019, "On International Commercial Arbitration" №. LRU-674 of December 16, 2021, Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 19, 2017, №. PD-5087 "On measures to radically improve the system of state protection of legitimate interests of business and further development of entrepreneurial activity", November 5, 2018, №.PR-4001 "On the establishment of the Tashkent International Arbitration Center (TIAC) under the Chamber of Commerce and Industry of Uzbekistan", April 29, 2019, №. PD-4300 "On measures to further improve the mechanisms for attracting foreign direct investment in the economy of the Republic". This dissertation research will to some extent serve in the implementation of the decisions and tasks set out in other legislation on the subject.

The dependence of the research on the priority areas of development of science and technologies in the republic. Dissertation research was carried out according to priority direction II of the Development Strategy, which envisages the development of science and technology in the republic, that is, "Making the principles of justice and the rule of law the most basic and necessary condition for development in our country."

Review of foreign scientific research on the topic of the dissertation.[4] Scientific studies on issues of digitalization of international arbitration and improvement of legal frameworks are conducted in the world's leading scientific centers and higher educational institutions, including the United States of America: Stanford University, Yale University, Harvard University, Columbia University, New York University; Great Britain: the University of Oxford, University of Cambridge, University of Reading, Queen Mary University, City University; European Union: Leiden University, Humboldt-Universität; Singapore Academy of International Arbitration, National University of Singapore; Middle East countries: University of Dubai, Dubai International Arbitration Center; Hong Kong International Arbitration Center; University of Newcastle, Australia; Russian Federation: Lomonosov Moscow State University, Kutafin Moscow State Law University, Tomsk State University, G.V.Plekhanov Russian Academy of Economics and higher education and other scientific research institutions.

The following scientific results have been achieved as a result of foreign scientific research on the issues of digitalization of international arbitration activities and the improvement of legal frameworks in the world. In particular: heuristic and cognitive approaches to the concept of digital arbitrage are justified. The legal framework for digital arbitration has been further developed (Stanford University, Yale University, Harvard University, Columbia University, and New York University). In order to ensure the rights of international investors, the conceptual basis for further expansion of the areas of application of digital arbitration, including attracting grants to the scientific field of digital arbitration at the expense of the financial resources of international organizations (the University of Oxford, University of Cambridge, University of Reading, Queen Mary University, City University). It is proposed to determine the evolution of the development of digital arbitration through modern bibliometric analysis and to take the necessary measures to organize the activities of advanced commercial companies to further improve the use of digitized systems in the arbitration process (Singapore International Academy of Arbitration, National University of Singapore). In the establishment of effective digital arbitration systems, the experience of advanced foreign countries has been proposed to introduce issues of digitalization of international arbitration activities on the basis of weak and strong technologies (Hong Kong International Arbitration Center, Newcastle University, Australia).

In the world, scientific research work is being carried out in the following priority directions aimed at finding legal problems of digital arbitration and their solution. In particular, facilitating the system of digital arbitration by establishing international centers based on digitized systems, introducing multi-level digital arbitration systems, using digital arbitration databases to strengthen the economic protection of investors, improving the legal basis for the use of digital arbitration, and applying digital arbitration in various fields, further improvement of the legal basis of the agreement, implementation of international digital arbitration standards into national legislation, etc.

The extent of study of the problem. Resolving international and local disputes within the framework of digital arbitration activities and clarifying its powers, as well as legal analysis of the determination, determination of the law and jurisdiction applicable to these relations, international experience in this regard, and the practice of foreign countries' legislation and law enforcement as an independent research object in our country not studied.

[1] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. PD-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" // National database of legislative information, 01.29.2022, 06/22/60/0082 - hip.

[2] Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan dated 05.10.2020, No. 03/20/640/1348.

[3] National Database of Legislation 13.01.2021, No. 03/21/663/0013.

